

aytilishiga, oldingi bo'g'inni keyingi bo'g'indan ajrati b talaffuz qilinishiga xizmat qilishi. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. Bo'g'in ko'chirilishi, ketma – ket kelgan undoshli so'zlarning bir yo'ldan keyingi yo'lga ko'chirilishi. Harf birikmasi (sh,sh,ng,) qatnashgan so'zlarning bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirilishi. Tutiq belgili so'zlarning bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirilishi. Shaxs va narsalar nomini bildirgan so'zlar, ularning kim?, nima?, kimlar?, nimalar? So'roqlariga javob bo'lishi, ismlarning bosh harf bilan yozilishi, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi, joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi. Harakatni bildirgan so'zlar, nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? Soroqlariga javob bo'lishi. Belgini bildirgan so'zlar, ularning qanday? qanaqa? Savollariga javob bo'lishi. Sanoqni bildirgan so'zlar. Ular nechta?, nechanshi?, necha?, qancha? So'roqlariga javob bo'lishi. nechanshi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning yozilishi. Darslarda berilgan lug'atchadan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish. Nutq va gap (12 soat) Nutq. Nutqning og'zaki va yozma shakllari. Matn. Matnning gaplardan tuzilishi. Gap. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'zni aniqlash. Gapning bosh harf bilan yozishni. Gapning oxiriga nuqta, soroq, undov belgilarining quyilishi. Gapning tugal fikr bildirishi va shunga xos ohang bilan aytilishi. Rasmlarga qarab gap tuzish va yozish. Savol – javob gaplar. Savol – javob tuzilishidagi matnlarning yozilishi. Nutq odobi. Sinf dan tashqari o'qish yuzasidan ko'nikma va malakalar yil davomida o'tilganlarni takrorlash (5 soat) Husnixat yozuvga oid malakalarni; yozuv jarayonida partada to'g'ri o'tirish, daftarni 65 qiyalikda qo'yish, rushkani to'g'ri ushlab malakalarini mustaxkamlash. Yozuv shiziqklarini farqlash, harflarning qiyaligi, ulanishi hamda so'zlar orasini bir xil tenglikda shamalash kabi shiroyli yozuv talablarini mashq qilish malakalarini shakllantirish. Kichik va bosh harflarni savod o'rgatish jarayonidagi kabi tartibda yozishni mashq qilish.

Savod o'rgatish jarayonida nutqqa o'rgatish.

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti, ko'nikmalarini shakllantirishdir. Nutqiy rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o'qitish (bolalarda qanday nutqiy ko'nikmani tarbiyalash), qanday o'qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega aynan shunday o'qitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma'lumotlariga asoslanmokda). Nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasida bolalarga ona tilini o'rgatishning obyektiv xususiyatlari aks ettirilgan nutqni rivojlantirish metodikasi soh asida O'zbekiston Respublikasida va xorijda yaratilgan va hozirda mavjud bo'lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan. Nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasida metodik amaliyot bilan birgalikda rivojlanmokda. Ayrim metodik qoidalarning yashovchanligi amaliyotida tekshirib ko'rilmokda, amaliyotning o'zi fan oldiga hali o'z yechimini topmagan muhim maqsadlarni qo'yimoqda. Metodik nazariyani bilmaydigan tarbiyachi faqat o'z farazlaridan kelib chiqib yoki boshqalarning tajribalaridan nusxa ko'chirgan holda bolalarni ko' r -ko'rona tarbiyalaydi. U ko'p narsani nazardan

qochiradi, chunki rang -barang metodlar va usullarni bilmaydi. Nutqni rivojlantirish metodikasi psixolingvistikaning asosiy qoidalari asosida quriladi Uning til inson faoliyatining barcha sohalarida muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi, degan asosiy qoidasi nutqni rivojlantirish metodikasida dasturilamal bo'lib hisoblanadi. Shu bois nutqni rivojlantirishga oid bilimlar va qobiliyatlar bilan qurollantirishga qaratilgandir. Nutqni rivojlantirish – bolaning yakka tartibdagi psixologik rivojlanishida markaziy o'rin tutadigan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishdagi o'ta murakkab, ko'p omilli jarayondir. Bu ijtimoiy jarayon emas. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni o'zida bolalarga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirgan yaxshi nazariy hamda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis tashkil qilishi va amalga oshirishi lozim. Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi: turli yosh bosqichlarida bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlarini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish; nafaqat bola yoshini, balki uning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olgan holda uning nutqiga ta'sir ko'rsatish va u bilan hamkorlik qilishning eng samarali yo'lini to'g'ri tanlashii o'rgatish hamda olingan natijalarni tahlil qilish; bolalar nutqinig turli qirralarini rivojlantirishning aniq metodlari va usullariga doir bilimlar hamda ularni didaktik nutqiy muloqot vaziyatl arida qo'llash, o'zlashtirishini ta'minlash; o'quv metodik qo'llanmalarni tanqidiy tahlil qilishga tayangan holda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar nutqiga ta'sir ko'rsatish borasida o'zining original usullari va yo'llarini yaratishga intilishni rag'batlantirish; kursni o'rganish jarayonida talabalar nutqini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari va bolalarga ona tilini o'qitishning psixolingvistik asoslari kabi tushunchalarni o'zlashtirishlari darkor; zamonaviy o'zbek tilini ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlari, ona tilini o'qitishning psixolingvistik, lingvodidaktik asoslarini bilish asosida ularni amaliyotda qo'llash metodikasi asoslarini o'zlashtirish; o'qishda va nutqda mantiqiy hamda emosional obrazli ifodalilikni o'rganish qobiliyati va ko'nikmalarini egallash, badiiy asarni tahlil qila olish va uni ijro etishni bilish bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish, talaffuz ko'nikmalarini grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish maqsadida ularning nutqiy faoliyatini yo'lga qo'yish hamda bolalarning bir -birlari bilan hamda boshqa shaxslar bilan muloqotlarini tashkil etish ko'nikmalarini o'zlashtirish. Til aqliy faoliyatni rejalashtirish imkonini yaratadi. Bu jarayonda tilning muhim vazifasi insonning xulq-atvorini boshqarish vazifasi paydo bo'ladi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe" ga asoslangan holda qisqa muddatda o'quvchilar o'qishga, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi, bora— bora malakaga aylantiriladi , O'qish va yozish malakasi nutqa oid malaka. O'qish va yozish malakasi nutq faoliyatining- boshqa turlari bilan ham bog'liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin . O'zbek tili yozuvi – tovush yozuvi. Yozuvda o'quvchi tovushni harfga ,o'qishda esa tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi . Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o'qish va yozish parallel olib boriladi. O'zbek tili

yozuvi – fonematik yozuv. O‘zbek tili yozuvi uchun 1993- yil lotin garfikasi asos qilib olindi. Nutqning har tovushi uchun unga mos shakl qabul qilindi. O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga tovushlar haqida ma‘lumot berishda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod o‘rgatish analitek – sintetik tovush metodida olib boriladi. So‘z bo‘g‘inga ajratiladi, bo‘g‘indan kerakli- o‘rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganilagan harf bilan sintezlanadi. Hozirgi o‘zbek unililar sistemasi : a, o, o‘, u, i, e. Savod o‘rgatishda tovush – harf bilan tanishtirish unililardan boshlanadi. e- harfi so‘z va bo‘g‘in boshida o‘rta keng lablanmagan unli o‘rnida v a undoshdan keyin yoziladi. Savod o‘rgatishda oldin so‘z boshida keladigan –e (ye) so‘ng undoshdan keyin keladigan –e o‘rgatiladi. -o harfi o‘zbekcha, umurtqiy so‘zlarda quyi keng, lablangan -o tovushini ifodalaydi. ruscha internasinal so‘zlarda urg‘usiz bo‘g‘inda –a tarzida ( kalxoz ) -o‘ tovushi kabi (to‘nna )qisqa –i tarzida ( rektir ) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unlili so‘zlar savod o‘rgatish davridan so‘ng o‘quv jarayoniga kiritiladi. O‘zbek tilida 24 undosh tovush bor. Shulardan 3 tasi xarf birikmasi, 24 undosh tovush 23undosh xarf bilan belgilanadi. Undoshlarni o‘rgatishda xam muayyan tartibga, talabga asoslaniladi. Alifbo davri sonor- ovozli (ovozdor) tovushlarni o‘rgatishdan boshlanadi. Lekin -ng sonor undoshi n va g undoshi tovush xarfi bilan tanishtirilgach o‘rgatiladi. Harf birikmalarini o‘rgatishdagi qiyinchilik xisobga olingan xolda ular alifbe davrining oxirrog‘ida o‘rganiladi. J xarfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni xisobga olib, unga aloxida darslar ajra tiladi.Savod o‘rgatish jarayonidayok harfning 4 xil varianta (bosma, yozma, bosh va kichik)ning ishlatilishi o‘rgatiladi. O‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish bo‘g‘in asosida olib boriladi.O‘qishning dastlabki boskichida orfografiya o‘qishdan foydalanilsa sekin- asta orfoepik o‘qitish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bo‘g‘inlab o‘qishga o‘rgatish uchun so‘zni bo‘g‘inga bo‘lish, bo‘g‘in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq –yopiq bo‘g‘inlarni farqlashga o‘rgatish muhim sanaladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.SHOjalilov A. va boshqalar.«O‘qish Kitobi»,«O‘qituvchi», 2004-yil. Umarova M. «O‘qish Kitobi» 3- sinf uchun. T., «O‘qituvchi» 2003- yil.
- 2.Umarova M. 3-sinfda O‘qish darslari (O‘qituvchi Kitobi.) Toshkent «Ijod dunyosi» 2003.
- 3.SHOjalilov A. va boshqalar. «O‘qish Kitobi», «O‘qituvchi», 2004 yil. II.Qosimova K., Fuzailov S. «Ona tili», 2-sinf uchun, T., «O‘qituvchi», 2003- yil.
- 4.Fuzalov S., Xudoyberganova M. «Ona tili» 3-sinf uchun. T., «O‘qituvchi» 2003 -yil.
- 5.Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 2003- y.
- 6.Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 1993 -yil.
- 7.Ma‘qulova B. va boshqalar. Boshlang‘ich sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari. T., «O‘qituvchi», 1996- yil.
- 8.To‘rt yillik boshlang‘ich sinflar dasturi. T., «O‘qituvchi», 1999- y



**SAVOD O'RGATISH O'QISH DARSLARINING TURLARI VA TUZILISHI. SAVOD  
O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNI BO'G'INLAB O'QISHGA O'RGATISH**

*Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich  
talabasi*

**Matyoqubova Fotima Urinbayevna**

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini to'g'ri o'qish va yozish qoidalari hamda bo'g'inga bo'lib o'qish va o'qigan mavzularini qayta so'zlab berish qoidalari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish, tovush, artikulyastiya, fonetik ishlar, diktant yozish, bo'g'inlab o'qish, grafik shakllar.*

**Аннотация:** *В данной научной статье идет слово о правилах правильного чтения и письма для учащихся начальной школы, а также о правилах чтения по слогам и пересказа прочитанных тем.*

**Ключевые слова:** *Обучение слоговому чтению, звучанию, артикуляции, фонетической работе, написанию диктанта, слоговому чтению, графическим формам.*

**Abstract:** *In this scientific article, a word about the rules of correct reading and writing for elementary school students, as well as the rules for reading in syllables and retelling the topics they have read goes.*

**Key words:** *Teaching syllabic reading, sound, articulation, phonetic work, writing dictation, syllabic reading, graphic forms.*

O'quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu davrda bo'g'inlab o'qish asosi shakllantiriladi. Alifbo davrini o'rganiladigan tovush-harfning va o'quv materialining murakkablik darajasiga ko'ra 3 bosqichga ajratish mumkin:

1) unli tovush-harflar, ovozdor, sirg'aluvchi undoshlar, o-na, a-na, il, in, bi-lan tuzilishidagi so'zlar o'rganiladigan bosqich;

2) artikulyastiyasi qiyin bo'lgan r, k, v, f kabi undoshlar va yo'l-bars, do'st, rasm kabi tuzilishdagi so'zlar o'rganiladigan bosqich;

3) o'rganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ng, sh, ch, 2 tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi (') va jo'ja, jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring va shu kabi so'zlarni o'qishga o'rgatiladigan bosqich.

3) o'rganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ng, sh, ch, 2 tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi (') va jo'ja, jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring va shu kabi so'zlarni o'qishga o'rgatiladigan bosqich.

Fonetik ishlar sohasida jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslashga, ularning so'z ma'nosini farqlashdagi faoliyatini aniqlashga oid mashqlar o'tkaziladi (ziyrak-siyrak, dil-til kabi) Alifbo davrining oxirida o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur: hamma tovushlarni tanishi va har qanday holatda to'g'ri talaffuz qilishi; so'zning bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlilini bilishi, so'zdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni so'z va bo'g'inga ajrata olishi; kesma harf va bo'g'inlardan so'z tuza olishi va o'qishi; 2-3-4 bo'g'inli so'zlarni yaxlit, adabiy-orfoepik talaffuz bilan o'qishi; gaplarni ohangiga rioya qilib o'qishi; o'zi o'qigan matnning mazmunini tushunib, ongli o'qishi; o'qigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi; o'qigan matnga sarlavha topa olishi; to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalariga ega bo'lishi. Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi kichik va bosh yozma harflarni to'g'ri shakllantirish, harflarni to'g'ri ulash, alifbeda o'qigan bo'g'in, so'z va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, bo'g'in, so'z, gap diktantlarini yozish ko'nikmasini shakllantirish, izohli, saylanma, ko'ruv, ta'limiy diktant yoza olishlariga erishish, umuman, grafik malakani shakllantirishdir. Savod o'rgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 2-3 qismi yozuvga ajratilsa, 20 tagacha so'z yoza olishlari talab qilinadi. Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi kichik va bosh yozma harflarni to'g'ri shakllantirish, harflarni to'g'ri ulash, alifbeda o'qigan bo'g'in, so'z va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, bo'g'in, so'z, gap diktantlarini yozish ko'nikmasini shakllantirish, izohli, saylanma, ko'ruv, ta'limiy diktant yoza olishlariga erishish, umuman, grafik malakani shakllantirishdir. Savod o'rgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 2-3 qismi yozuvga ajratilsa, 20 tagacha so'z yoza olishlari talab qilinadi. Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglik uchun, madaniyat uchun kurash qurolidir. Mustaqil O'zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Islom A. Karimov kelajak avlodning savodxon, yuksak Ma'naviyat egasi bo'lib yetishishlari uchun g'amho'rlik qilmoqdalar. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe" ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar. Savod o'rtgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish,

ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi. O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasiga o'quvchi ruchkani qanday ushlab, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilishi jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib avtomatlashish darajasiga yetkaziladi. O'qish va yozish kishi nutq faoliyatini turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasini ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgarlar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq. O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalgam oshuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga to'g'ri keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o'stiradi. O'quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad o'qish va yozishni o'rganish hamda hozirda bajarish shart bo'lgan kundalik maqsad – topishmoqni o'qish va javobini topish, so'z va gaplarni o'qish rasm asosida so'zlar berish kabilar turadi. O'zbek tili yozuvi ya'ni fanematik yozuvdir. Har bir yozuv uchun, har bir fonema uchun mahsus grafik shakl olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa – da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tizimdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas. O'qish va yozishni o'zlashtirish uchun tovush va harflarning o'zaro munosabatiga oid qoidalarni o'zlashtirish kifoya. Savod o'rgatish metodikasida o'zbek tili tovushlar va harflar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. O'qish darslari davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish. So'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Xat-savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab bosma harflarning yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish foydalidir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalari jalb qilish,